

HUSAYNIY HAYOTI VA UNING SHE'RIYATGA QO'SHGAN HISSASI

Yozilova Sevinch

**Kattaqo'rg'on davlat pädagogika instituti o'zbek
tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi**

Suyunova Dilbar

**Kattaqo'rg'on davlat pedagogika filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
kafedra o'qituvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20095382>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Husayniy taxallusi bilan ijod qilgan buyuk davlat arbobi va shoir — Husayn Boyqaro hayoti, siyosiy faoliyati hamda adabiy merosi chuqur tahlil qilinadi. U Temuriylar davrining yirik namoyandaligidan biri bo'lib, Xuroson hududida hukmronlik qilgan va ilm-fan hamda madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan. Maqolada uning davlat boshqaruvidagi donoligi bilan bir qatorda, “Husayniy” taxallusi ostida yaratgan she'riy asarlari, ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, Husayn Boyqaroning adabiyot ahliga ko'rsatgan homiyligi, ayniqsa Alisher Navoiy bilan bo'lgan yaqin aloqalari va bu hamkorlik natijasida yuzaga kelgan adabiy muhit haqida so'z yuritiladi. Uning she'riyatida insonparvarlik, adolat, muhabbat va hayot falsafasi kabi mavzular asosiy o'rin egallaydi. Maqola orqali Husayniyning nafaqat hukmdor, balki nozik didli ijodkor sifatidagi o'rni ochib beriladi.

Аннотации: В данной статье рассматриваются жизнь и творческое наследие выдающегося государственного деятеля и поэта Husayn Boyqaro, писавшего под псевдонимом Хусайний. Он являлся одним из ярких представителей эпохи Тимуридов и правил в Хорасане, способствуя развитию науки, культуры и литературы. В статье анализируются его поэтические произведения, их художественные особенности, идейное содержание и философская глубина. Особое внимание уделяется его роли как покровителя науки и искусства, а также его тесным отношениям с великим поэтом Alisher Navoiy, что способствовало расцвету литературной среды того времени. Таким образом, Хусайний представлен не только как мудрый правитель, но и как талантливый поэт, внёсший значительный вклад в развитие тюркоязычной литературы.

Annotation: This article examines the life and literary contribution of the prominent ruler and poet Husayn Boyqaro, who wrote under the pen name Husayniy. As a significant figure of the Timurid era, he ruled over Khorasan and played a crucial role in the advancement of science, culture, and literature. The article analyzes his poetic works, focusing on their artistic features, thematic richness, and philosophical depth. Special attention is given to his patronage of scholars and poets, particularly his close relationship with Alisher Navoiy, which greatly contributed to the flourishing of literary life during that period. The study highlights Husayniy not only as a powerful ruler but also as a refined poet whose works enriched Turkic literature.

Kalit so'zlar: Husayn Boyqaro, Husayniy, Temuriylar davri, she'riyat, adabiy meros, Alisher Navoiy, Xuroson, madaniyat, adabiy muhit, g'azal, insonparvarlik.

Ключевые слова: Хусейн Байкара, Хусайний, эпоха Тимуридов, поэзия, литературное наследие, Алишер Навои, Хорасан, культура, литературная среда, гуманизм.

Keywords: Husayn Bayqara, Husayniy, Timurid era, poetry, literary heritage, Alisher Navoi, Khorasan, culture, literary environment, humanism.

Kirish qism: O‘zbek mumtoz adabiyoti va umuman Sharq madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk siymolardan biri — Husayn Boyqaro hisoblanadi. U XV asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan bo‘lib, Temuriylar sulolasining eng nufuzli hukmdorlaridan biri sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Biroq uning shaxsiyati faqat siyosiy faoliyati bilan chegaralanmaydi. Husayn Boyqaro “Husayniy” taxallusi ostida nafis va mazmunan chuqur she‘rlar yaratgan iste’dodli shoir sifatida ham keng e’tirof etilgan. Shu bois uning hayoti va ijodini o‘rganish nafaqat tarixiy, balki adabiy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. XV asr Markaziy Osiyo va Xuroson hududi uchun muhim burilish davri bo‘ldi. Bu davr ilm-fan, san‘at va adabiyotning jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi va ko‘pincha “Temuriylar uyg‘onish davri” deb ataladi. Ana shu madaniy yuksalish jarayonida Husayn Boyqaroning roli beqiyosdir. U o‘z hukmronligi davrida nafaqat davlatni mustahkamlashga, balki ma’naviy hayotni rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratdi. Ayniqsa, Hirot shahri uning davrida Sharqning eng yirik ilmiy va adabiy markazlaridan biriga aylandi. Bu yerda ko‘plab olimlar, mutafakkirlar, shoirlar va san‘atkorlar faoliyat yuritib, boy madaniy muhitni shakllantirdilar. Husayn Boyqaroning adabiyot va san‘atga bo‘lgan chuqur e’tibori uning shaxsiy fazilatlari bilan bevosita bog‘liq edi. U ijod ahlini qadrlagan, ularni qo‘llab-quvvatlagan va ularga keng imkoniyatlar yaratib bergan ma’rifatparvar hukmdor edi. Ayniqsa, uning buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy bilan bo‘lgan do‘stona munosabatlari tarixda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ikki buyuk shaxsning hamkorligi natijasida turkiy adabiyot misli ko‘rilmagan darajada rivojlandi, milliy tilning badiiy imkoniyatlari kengaydi va adabiy an‘analar yangi bosqichga ko‘tarildi. Navoiy ijodining gullab-yashnashida Husayn Boyqaroning homiyligi muhim omil bo‘lgan bo‘lsa, o‘z navbatida, Navoiy ham saroy muhitining ma’naviy boyishiga katta hissa qo‘shgan. Shu bilan birga, Husayn Boyqaro faqat homiy sifatida emas, balki mustaqil ijodkor sifatida ham e’tiborga loyiqdir. U “Husayniy” taxallusi ostida yozgan she‘rlarida inson qalbining nozik kechinmalarini, muhabbat, sadoqat, vafodorlik, adolat va hayotning falsafiy mazmunini chuqur ifoda etgan. Uning she‘riyati o‘zining samimiyligi, sodda va ravon tili, badiiy ifoda vositalarining boyligi bilan ajralib turadi. Bu esa uning nafaqat hukmdor, balki yuqori didli va iste’dodli ijodkor ekanini ko‘rsatadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — Husayn Boyqaroning hayoti, davlat boshqaruvidagi faoliyati va “Husayniy” taxallusi ostidagi ijodini kompleks tarzda o‘rganishdan iboratdir. Shuningdek, uning adabiy merosini tahlil qilish orqali o‘zbek va umuman turkiy adabiyot rivojiga qo‘shgan hissasini ochib berish, uning ijodi orqali o‘sha davr adabiy muhitining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish ham muhim vazifalardan hisoblanadi. Bugungi kunda Husayn Boyqaro merosini o‘rganish, uning ijodiy faoliyatini chuqur tahlil qilish yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda, ularda tarixiy ong va madaniy merosga hurmat tuyg‘usini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan mazkur mavzu ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib, u nafaqat adabiyotshunoslik, balki tarix, madaniyatshunoslik va falsafa fanlari uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qism: Husayn Boyqaro, Husayniy (to‘liq nomi Husayn ibn Mirzo Mansur binni Mirzo Boyqaro) (1438— Hirot — 1506) — Xuroson hukmdori (1469—1506), shoir. 15-asr o‘zbek mumtoz adabiyotining namoyandalaridan. Temuriylardan Umarshayx mirzoning evarasi. Onasi Feruzabegim temuriylardan Mironshohning nabirasi. Husayn Boyqaro, Bobur ta’riflaganidek, ikki tomonlama ulug‘ («karim ut-tarafayn») bo‘lgan. 14 yoshda Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kirgan. 1454 yil Abulqosim Boburning Samarqandga — Abu Said Mirzoga qarshi yurishida qatnashgan. Abulqosim Bobur yengilgach, sulh tuzib, Hirotga qaytgan.

Husayn Boyqaro esa onasining tavsiyasi bilan Abu Said Mirzo saroyida qolgan. Ko'p o'tmay, qamoqqa olingan. Feruzabegim uni qutqarib, Hirotga olib kelgan. Shoh vafot etgach, Husayn Boyqaro Marv hukmdori Sulton Sanjar xizmatiga kirgan va uning qizi Beka Sultonbegimga uylangan. Sulton Sanjar Husayn Boyqaroni o'z o'rniga qo'yib, Mashhadga yurish qilgan. Bu orada Marvda Husayn Boyqaroga qarshi fitna uyushtirilib, u ovga chiqqanda, shahar darvozalari berkitib olingan. Husayn Boyqaro 1457 yil qishni Marv bilan Xiva oralig'idagi biyobonda o'tkazgan. 1458 yilda 300 kishilik qo'shin bilan Sulton Sanjarning yaqinlaridan Bobo Hasan qo'shinini yengib, Niso viloyati, so'ng Astrobodni egallagan. 1459 yilda Husayn Boyqaro huzuriga Abdurazzoq Samarqandiy elchi bo'lib kelgan. 1460 yilda vaziyat taqozosi bilan Husayn Boyqaro Astrobodni tashlab chiqishga majbur bo'lgan. Ammo 1461 yil shaharni qaytarib olgan. Shu yil yoz oxirlarida Hirotga yurish qilgan. Biroq Abu Said Mirzoga bas kelolmay, orqaga chekingan, buning ustiga, Astroboddan ham mahrum bo'lgan. Amudaryo orqali Xorazmga o'tib, Vazir shahriga — Mustafaxon huzuriga elchi yuborib, Abu Saidga qarshi birgalikda kurashishga da'vat etgan. Lekin elchi kelguncha, uning og'asi Pir Budog' bilan kelishib, Mustafoxonga qarshi yurish qilishgan, lekin Vazir shahrini ololmay, bitim tuzganlar. Husayn Boyqaro Adoqqa borib, 1461 yil oxirlarigacha o'sha yerda qolgan. Adoqda turib, Astrobod, Gurgon va Eronning boshqa tumanlariga hujumlar uyushtirgan, mag'lubiyatga uchraganida, shu yerdan panohtopgan. Mustafozulmiga qarshi ko'tarilgan isyondan foydalanib, avval Vazirni, 1462 yilda Urganch va Xivani qo'lga kiritgan. Oradan 1 yil o'tmay, Abu Said uni Xorazmdan surib chiqargan. 1463—64 yillarda Urganch, Xiva, Hazorasp, Tirsakni qo'lga kiritgan. Shu yerda kuch to'plab, yana Xurosonga hujum qilgan. Ammo Abu Said qo'shinlari Xivani egallaydi. Husayn Boyqaro uni qaytarib oladi. 1467 yilda yana Urganchni egallaydi. Shu yili u o'zbeklar xoni Abulxayrxondan yordam so'rab, Dashti Qipchoqqa boradi. Xon yordam va'da qiladi, lekin betob bo'lib qolganligi tufayli, bu va'da amalga oshmaydi. 1469 yil martigacha Xorazm va Buxoro o'rtasida sarson-sargardon yurgan Husayn Boyqaro, Abu Said vafot etgach, Hirotni egallab, Samarqanddan do'sti Alisher Navoiyni maxsus yorliq bilan chaqirib oladi va muhrdorlik vazifasiga tayinlaydi. Navoiy do'stini taxtga chiqishi bilan qutlab, unga «Hiloliya» qasidasini taqdim etgan. 1469—70 yillar Shohrux mirzoning avlodlaridan Yodgor Muhammad Mirzo va Abu Said Mirzoning o'g'li Sulton Mahmud Mirzo taxt da'vogarlarlari sifatida maydonga chiqadilar. Yodgor Mirzoning tarafdorlari, xususan, onasi Poyanda Sultonbegim Hirot ichkarisida zimdan ish olib borgan. 1470 yilning iyulida Husayn Boyqaro qo'shin bilan dushmanga qarshi jangga ketganda, poytaxtda sotqin bek va amaldorlar Yodgor Mirzo nomiga xutba o'qitganlar. Husayn Boyqaro 1 oydan so'ng Navoiyning tadbirkorligi bilan Yodgor Mirzoni qo'lga olib, taxtni qayta egallagan va umrining oxirigacha hukmdorlik qilgan. Saltanatiga Xorazm, Seyiston, Qandahor, Balx, G'aznadan Domg'ongacha bo'lgan yerlar kirgan. Yurak xastaligidan vafot etgan Husayn Boyqaro o'zi qurdirgan madrasa ichidagi maqbaraga dafn etilgan. Hozir maqbara vayron bo'lgan, qabr va uning ustiga o'rnatilgan «Sangi haft qalam» saqlanib qolgan. Husayn Boyqaro temuriylar orasida ancha shijoatli va ma'rifatli, shariatga qat'iy amal qilgan hukmdor bo'lgan. Husayn Boyqaro Xurosonda hokimiyatni egallagach, asosiy e'tiborni mamlakatda tinchlik, osoyishtalikni qaror toptirish, ichki hududiy nizolar, ziddiyatlarni bartaraf etish va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga qaratgan. U o'lkada madaniy-ma'rifiy va obodonchilik ishlarini rivojlantirishga alohida rag'bat ko'rsatgan: iqtisodiy hayot yuksalib, savdo-sotiq rivojlangan, yuzlab karvonsaroylar, rabot, ko'prik, maktab, madrasa, masjid, xonaqoh, hammom, tabobatxona, yetimxona, suv havzalari qurilgan, kanallar

qazilgan, bog'lar barpo etilgan. Husayn Boyqaro davrida Hirot Sharqning fan, madaniyat, hunarmandchilik rivojlangan yirik markaziga aylangan: turli mamlakatlardan iste'dod sohiblari Hirotga panoh axtarib kelganlar. Til, adabiyot, tarix, tasviriy san'at, xattotlik, kitobat san'ati, tabobat, handasa, musiqa, qog'oz tayyorlash, tomosha san'ati va b. sohalar rivojlangan. Hirot, Mashhad, Marv, Nishopur singari shaharlarda ko'plab noyob obidalar barpo etilgan. Mahalliy hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar Xurosondan tashqarida ham mashhur bo'lgan. Husayn Boyqaro, Navoiy va Jomiy ko'plab iste'dodlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlaganlar; o'z davrining zabardast shoir, olim, muarrix, musiqachi, xattot, naqqoshlari xuddi shu zamonda yetishib chiqqanlar va faol ijod qilganlar. Husayn Boyqaro turkiy tilda yozishni rag'batlantirgan va shunga da'vat qilgan. O'zi ham badiiy ijod bilan shug'ullanib, «Husayniy» taxallusi bilan she'rlar yozgan, she'riyat majlislari tashkil etib, shoirlarga rahnamolik qilgan. Undan bizgacha she'rlar devoni va navoiyga bag'ishlangan «Risola» asari yetib kelgan. «Risola» asari 1945 yilda turk olimi Ismoil Hikmat tomonidan topilib, ilmiy muomalaga kiri-tilgan. Shoh shoirning hozirgacha 202 g'azal, Navoiy gazaliga bog'langan 3 muxammas, 6 ruboiy, shuningdek, fors-tojikcha 2 g'azal. 1 ruboiy va bir necha baytlari ma'lum. G'azallarining barchasi ramal bahrida. Lekin ular Husayn Boyqaroning tab'i baland, didi nozik shoir bo'lganligini ko'rsatadi. Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasining 8-majlisini to'liq Husayn Boyqaro ijodida bag'ishlab, uning devonidagi 164 g'azalning matla'ini keltiradi va u qo'llagan badiiy timsollar, she'riy san'atlar, nozik ma'no va ohorli tashbehlar xususida fikr yuritadi. Husayn Boyqaro g'azallari tilining musiqiyliigi va jarangdorligi bilan ajralib turadi. Husayn Boyqarodan 14 o'g'il, 11 qiz qolgan. Badiuzzamon Mirzo, Shohg'arib Mirzo, Muhammad Husayn, Ibrohim Husayn kabi o'g'illari badiiy ijod bilan ham shug'ullanishgan. Keyinchalik o'zaro ichki urushlar, Husayn Boyqaro va saroy amaldorlarining maishatga berilib ketishi oqibatida Xuroson davlati zaiflashgan. Uning vafotidan so'ng Hirot shayboniylar tomonidan zabt etilgan (1507). "Tiriklayin ko'milgan podshoh" degan ta'riflar ham shu kishiga aytiladi. Husayniy o'zining musiqiy tili bilan boshqa shoirlardan ajralib turadi. Husayn Boyqaro "Husayniy" taxallusi bilan turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan iste'dodli shoirlardan biri hisoblanadi. Uning she'riyati XV asr Temuriylar davri adabiy muhitining muhim qismi bo'lib, unda insoniy tuyg'ular, muhabbat, hayot falsafasi va axloqiy qarashlar chuqur ifoda etilgan. Husayniy ijodi o'z davridagi mumtoz adabiyot an'analari asosida shakllangan bo'lsa-da, unda shoirning shaxsiy kechinmalari va hayotiy qarashlari ham yaqqol seziladi. Husayniy she'riyatining asosiy janri g'azal hisoblanadi. Uning g'azallarida ishq va muhabbat mavzusi yetakchi o'rin tutadi. Shoir muhabbatni inson qalbini poklovchi, uni ma'naviy jihatdan yuksaltiruvchi kuch sifatida tasvirlaydi. Shu bilan birga, uning she'rlarida ayriliq, hijron, visol, sadoqat va vafodorlik kabi an'anaviy Sharq she'riyati mavzulari ham badiiy mahorat bilan yoritilgan. Husayn Boyqaro she'riyatining muhim jihatlaridan biri — undagi insonparvarlik g'oyalaridir. Shoir adolat, mehr-oqibat, inson qadr-qimmatini va ezgulikni ulug'laydi. Uning ayrim baytlarida hukmdor sifatidagi hayotiy tajribasi ham aks etadi. Bu esa Husayniy ijodini boshqa mumtoz shoirlar ijodidan ma'lum darajada ajratib turadi. U davlat boshqaruvi va insoniy fazilatlarini uyg'un holda tasvirlashga intilgan. Husayniy she'rlarining tili sodda va ravon bo'lishiga qaramay, mazmun jihatidan chuqur falsafiy ma'noga ega. Shoir ko'pincha tashbeh, isti'ora, tazod va talmeh kabi badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalangan. Bu esa uning she'rlariga alohida joziba va ta'sirchanlik bag'ishlagan. Uning ijodida Sharq mumtoz adabiyotining go'zal an'analari davom ettirilgan bo'lib, she'riy ohangdorlik va

musiqiylik muhim o‘rin egallaydi. Husayniy she‘riyati rivojida Alisher Navoiy bilan bo‘lgan ijodiy yaqinlik ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Navoiy Husayn Boyqaroning iste‘dodini yuqori baholagan va uning she‘rlariga hurmat bilan munosabat bildirgan. O‘z navbatida, Husayn Boyqaro ham Navoiy ijodini qo‘llab-quvvatlagan va turkiy adabiyot ravnaqiga keng imkoniyat yaratgan. Shu sababli bu davr adabiy muhiti Sharq madaniyati tarixida alohida o‘rin tutadi. Husayniy she‘riyati o‘zining samimiyligi, nozik lirizmi va hayotiyli bilan ajralib turadi. Uning asarlari orqali XV asr madaniy muhiti, insonlarning ma‘naviy dunyosi va estetik qarashlari haqida muhim tasavvur hosil qilish mumkin. Shoirning adabiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, o‘zbek mumtoz adabiyotining muhim namunalaridan biri sifatida qadrlanadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Husayn Boyqaro nafaqat Temuriylar davrining qudratli hukmdori, balki yuksak ma‘naviyat egasi va iste‘dodli shoir sifatida ham o‘zbek hamda turkiy adabiyot tarixida muhim o‘rin egallaydi. U “Husayniy” taxallusi bilan yaratgan she‘rlari orqali insoniy tuyg‘ularni, muhabbat va sadoqatni, adolat hamda ezgulik g‘oyalarini chuqur badiiy ifoda eta olgan. Shoirning ijodi o‘zining samimiyligi, falsafiy mazmuni va badiiy mahorati bilan ajralib turadi. Husayn Boyqaro hukmronligi davrida Hirot shahri Sharqning eng yirik ilm-fan va madaniyat markazlaridan biriga aylangan. Bu davrda ko‘plab olimlar, shoirlar va san‘atkorlar faoliyat yuritib, boy adabiy muhit shakllangan. Ayniqsa, uning buyuk mutafakkir Alisher Navoiy bilan bo‘lgan do‘stona va ijodiy hamkorligi turkiy adabiyot taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. Bu hamkorlik natijasida milliy adabiyot yangi bosqichga ko‘tarilib, turkiy tilning badiiy imkoniyatlari yanada kengaygan. Husayniy she‘riyati Sharq mumtoz adabiyotining go‘zal an‘analarini davom ettirgan holda, o‘ziga xos uslub va badiiy tafakkurni namoyon qiladi. Uning she‘rlarida insonparvarlik, vatanparvarlik, axloqiy poklik va hayot falsafasi asosiy mavzular sifatida aks etadi. Shoirning ijodi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lib, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Demak, Husayn Boyqaroning hayoti va ijodi nafaqat tarixiy jihatdan, balki adabiy va ma‘naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, uning boy merosi o‘zbek mumtoz adabiyotining bebaho xazinalaridan biri sifatida qadrlanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Majolis un-nafois — Toshkent, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Boburnoma — Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. O‘zbek adabiyoti tarixi — Toshkent, O‘qituvchi nashriyoti.
4. Temuriylar davri adabiyoti — Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Husayn Boyqaro va uning adabiy muhiti — Toshkent, Akademy nashr.